



# KRIMINOLOGIYA VA JINOIY ODIL SUDLOV

ILMIY-AMALIY JURNAL

2023-yil 4-son

VOLUME 3 / ISSUE 4 / 2023  
DOI: 10.51788/TSUL.CCJ.3.4.

ISSN 2181-2179  
DOI: 10.51788/TSUL.CCJ.



# MUNDARIJA

## 12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. KRIMINOLOGIYA. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

### **Niyozova Salomat Saparovna**

VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGINING SABABLARI VA ULARGA  
IMKON BERGAN SHART-SHAROITLARGA DOIR ILMIY YONDASHUVLAR ..... 4

### **Islomov Bunyod Ochilovich**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT QONUNIDA YENGILROQ JAZO  
TAYINLASH .....15

## 12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA SUD EKSPERTIZASI

### **Qodiraliyev Saddam Baxtiyorjon o‘g‘li, Gulmurodov Firuzbek Olimjon o‘g‘li**

TERGOV SUDYASI – O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT PROTSESSIDA  
YANGI INSTITUT SIFATIDA .....28

### **Yermekbayev Baurjan Amantayevich, Akmalov Hamid Akmalovich**

TINTUV YOKI OLIB QO‘YISH O‘TKAZISHDA SHAXS HUQUQLARI VA QONUNIY  
MANFAATLARINI KAFOLATLASH .....40

### **Olimov Bekmirza Tuxtapulatovich**

INSON O‘LIMI BILAN BOG‘LIQ JINOYATLARNI KVALIFIKATSIYA QILISHDA  
EKSPERT XULOSASINING AHAMIYATI .....51

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.ccj.3.4./XTCG9375>  
UDC: 343.16(045)(575.1)

## TERGOV SUDYASI – O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT PROTSESSIDA YANGI INSTITUT SIFATIDA

**Qodiraliyev Saddam Baxtiyorjon o‘g‘li,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
Sud, huquqni muhofaza qiluvchi organlar  
va advokatura kafedrasida katta o‘qituvchisi  
ORCID: 0000-0002-5479-5481  
e-mail: s.qodiraliyev@tsul.uz

**Gulmurodov Firuzbek Olimjon o‘g‘li,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi  
ORCID: 0000-0002-1602-2373  
e-mail: gulmurodovfiruzbek@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tergov sudyasining huquqiy maqomi, tergov sudyasi institutining kelib chiqish tarixi va rivojlanish bosqichlari, jinoyat protsessida tergov sudyasi institutining ahamiyati va o‘ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030 strategiyasini 2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 300-sonli qarori bilan 2024-yil yakuniga qadar tezkor-qidiruv va tergov harakatlariga sanksiya berish masalasini alohida sudyalar – tergov sudyalari tomonidan ko‘rib chiqish tartibi joriy etilishi belgilanganligi, tergov sudyasining nafaqat tezkor-qidiruv va tergov harakatlariga sanksiya berish, balki uning jinoyat protsessida ishni sudga qadar yuritish bosqichida sud nazoratini amalga oshirish tamoyilidan kelib chiqib tergov sudyasining vakolatlarini keng doirada belgilash masalalariga to‘xtalib o‘tilgan. Ayniqsa, ushbu institutning joriy etilishi bilan sudga qadar ish yuritishda taraflar faoliyatini tenglik va tortishuv asosida olib borish imkoniyati ta‘minlanishi hamda ayblov tarafining ustunlik mavqeyiga barham berib, himoya tarafning protsessual maqomini oshirishga imkoniyat yaratilishi masalalari muhokama qilingan. Tergov sudyasi institutiga doir huquqshunos olimlarning fikrlari tahlil qilingan. Bu borada Qozog‘iston, Gruziya, Moldova, Estoniya davlatlari tajribasi va 2019-yildan Qirg‘iziston Respublikasi jinoyat protsessida joriy etilgan tergov sudyasi instituti ham asosiy tadqiqot obyektlaridan biri sifatida o‘rganilgan. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat protsessual qonunchiligida tergov sudyasining huquqiy maqomini belgilash, jinoyat protsessida sud nazorati tamoyili, ixtisoslashtirilgan tergov sudyalari korpusini shakllantirish yuzasidan tegishli takliflar berilgan.

**Kalit soʻzlar:** jinoyat protsessi, tergov sudyasi, dalillarni koʻrib chiqish jarayoni, taraflarning tortishuvi, huquqiy maqom, sud nazorati, ixtisoslashtirilgan tergov sudyalari korpusi, protsessual maqom, protsessual vakolat.

## СЛЕДСТВЕННЫЙ СУДЬЯ – НОВЫЙ ИНСТИТУТ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

**Кодиралиев Саддам Бахтиёржон угли,**  
старший преподаватель кафедры «Суд, правоохранительные  
органы и адвокатура» Ташкентского государственного  
юридического университета

**Гулмуродов Фирузбек Олимжон угли,**  
студент Ташкентского государственного  
юридического университета

**Аннотация.** В данной статье раскрывается правовой статус следственного судьи, история возникновения и этапы развития института следственного судьи, его значение и особенности в уголовном процессе. Постановлением Президента Республики Узбекистан «О мерах по своевременной и качественной реализации Стратегии “Узбекистан – 2030” в 2023 году» № ПП–300 до конца 2024 года предусмотрено введение порядка рассмотрения вопроса о санкционировании ряда оперативно-розыскных и следственных действий отдельными судьями – следственными судьями, затронуты вопросы установления более широкого круга полномочий следственного судьи, исходя из принципа осуществления судебного контроля не только при санкционировании отдельных оперативно-розыскных и следственных действий, но и на стадиях досудебного производства и передачи дела в суд в уголовном процессе. В частности, с введением данного института решаются вопросы обеспечения ведения деятельности сторон при разбирательстве в суде на основе равенства и состязательности, а также повышения процессуального статуса стороны защиты путём устранения доминирующего положения стороны обвинения. Проанализированы мнения учёных-юристов об институте следственного судьи. В связи с этим в качестве одного из основных объектов исследования был изучен опыт стран Казахстана, Грузии, Молдовы, Эстонии и Кыргызстана, где институт следственного судьи был введён в уголовное судопроизводство с 2019 года. Даны соответствующие предложения по определению правового статуса следственного судьи, принципах судебного контроля в уголовном процессе, формированию корпуса специализированных следственных судей в уголовно-процессуальном законодательстве Республики Узбекистан.

**Ключевые слова:** уголовный процесс, следственный судья, процесс рассмотрения доказательств, состязательность сторон, правовой статус, судебный контроль, корпус специализированных следственных судей, процессуальный статус, процессуальная компетенция.

## THE INVESTIGATIVE JUDGE IS A NEW INSTITUTE IN THE CRIMINAL PROCESS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**Kadiraliyev Saddam Bakhtiyorjon ugli,**  
Senior lecturer of the Department Court,  
law enforcement agencies and advocacy  
Tashkent State University of Law

**Gulmurodov Firuzbek Olimjon ugli,**  
Student of Tashkent State University of Law

**Abstract.** *In this article, the legal status of the investigating judge, the history of the origin and stages of development of the investigating judge institution, and the importance and specific features of the investigating judge institution in the criminal process are explained. With the decision No. 300 of the President of the Republic of Uzbekistan, “On measures to implement the strategy of Uzbekistan – 2030 in 2023 in a high-quality and timely manner” until the end of 2024, rapid search and investigative actions It is established that the procedure for consideration of the issue of sanctions by individual judges—investigative judges—is established, and the powers of the investigating judge are widened based on the principle of not only sanctioning quick searches and investigative actions but also exercising judicial control at the stage of bringing the case to court in the criminal process. The issues of definition are touched upon in the framework. In particular, with the introduction of this institution, the issues of providing the opportunity to conduct the activities of the parties on the basis of equality and controversy in proceedings before the court, as well as the possibility of increasing the procedural status of the defense side by eliminating the dominant position of the prosecution side, were discussed. The opinions of legal scholars about the institution of investigating judge were analyzed. In this regard, the experience of the countries of Kazakhstan, Georgia, Moldova, Estonia, and the Institute of Investigative judge, introduced in the criminal proceedings of the Kyrgyz Republic since 2019, was studied as one of the main research objects. In the criminal procedural legislation of the Republic of Uzbekistan, relevant proposals were made regarding the determination of the legal status of the investigating judge, the principle of judicial control in criminal proceedings, and the formation of a corps of specialized investigative judges.*

**Keywords:** *criminal procedure, investigative judge, evidence review process, parties’ dispute, legal status, judicial control, corps of specialized investigative judges, procedural status, procedural authority.*

### Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030 strategiyasini 2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi

300-sonli qarori bilan 2024-yil yakuniga qadar qonunda belgilangan asoslarda tezkor-qidiruv va tergov harakatlariga sanksiya berish masalasini alohida sudyalari – tergov sudyalari tomonidan ko‘rib chiqish tartibi joriy etilishi belgilangan. Yangi tartibga ko‘ra, endilikda tezkor-qidiruv va tergov harakatlariga sanksiya berish vakolati sudlardan tergov sudyalari o‘tkazilishi nazarda tutilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasiga asosan, davlat hokimiyatining tizimi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linadi. Sud hokimiyatini asosiy vazifasi odil sudlovni amalga oshirishdir. G‘arbiy Yevropa va Markaziy Osiyoning ba‘zi davlatlarida sudlar nafaqat odil sudlovni amalga oshiradi, balki ularda sud nazorati ham bordir. Sud nazorati tushunchasi jinoyat protsessida ishni sudga qadar yuritishda tergov sudyasi tomonidan surishtiruv va tergov organlari ustidan bevosita nazoratni amalga oshirishini anglatadi. Sud nazoratini amalga oshirilishi jinoyat protsessida ishni sudga qadar yuritishni obyektiv va xolisona amalga oshirilishini ta‘minlaydi. Jinoyat protsessida tergov sudyasi institutining joriy etilishi orqali ayblov va himoya taraflarning tengligi va tortishuvi prinsipi ta‘minlanadi.

Hozirgi kunda tergov sudyasi instituti Gruzija (2015-yil), Qozog‘iston (2015), Qirg‘iziston (2019-yil), Latviya (2005-yil), Litva (2002-yil), Moldova (2003-yil), Estoniya (2003-yil) davlatlarida mavjud [1, 223-b.]. Albatta bu borada ushbu davlatlarning tajribasini tadqiq etish O‘zbekiston Respublikasi jinoyat protsessida joriy etiladigan tergov sudyasining protsessual huquqiy maqomi bilan bog‘liq masalalarni belgilashda dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi.

Sud nazorati tushunchasini tamoyil sifatida e‘tirof etish o‘rinlidir. Asosiysi, sud nazorati tamoyili orqali jinoyat protsessida ishni sudga qadar yuritishda inson huquq va erkinliklarini ta‘minlash, ularning huquqlarini asossiz cheklashdan himoya qilish, shuningdek, jinoyat protsessida qonun ustuvorligiga rioya qilishdir. Huquqshunos olim Golovkoning ta‘kidlashicha, “Sud nazoratining maqsadi shaxs huquq va erkinliklarini himoya qilishdir” [2, 2-b.]. Aynan xorijiy davlatlarda tergov sudyasi institutining joriy etilishidan maqsad sud nazoratining amalga oshirilishi hisoblangan. Tergov sudyasi institutining tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, dastlab Fransiyada Napoleon Bonapart tomonidan 1808-yilda tergov sudyasi lavozimi joriy etilgan [3, 1-b.]. Keyinchalik tergov sudyalari Germaniya va Ispaniyada ham joriy etildi [4].

Huquqshunos olim A.S. Aleksandrovning so‘zlariga ko‘ra, “Tergov sudyasi – umumiy yurisdiksiya sudlari tizimidan mustaqil ravishda ishlaydigan va ixtisoslashtirilgan tergov sudyasi”. Huquqshunos olimlardan Zinchenko va L.M. Fetishcheva “Tergov sudyasi birinchi instansiya sudining sudyasi bo‘lib, u jinoyati ishlari bo‘yicha odil sudlovni amalga oshirish bilan bir qatorda, jinoyat protsessida ishlarni sudgacha bo‘lgan ish yuritishda sud nazoratini amalga oshirish bilan bog‘liq vakolatlar beriladi”, – deya ta‘kidlagan. [5, 41-b.]

Fikrimizcha, ushbu huquqshunos olimlarning fikrlariga qo‘shilib bo‘lmaydi. Sababi tergov sudyasi jinoyat protsessida alohida institut bo‘lib, uning asosiy vazifasi sud



nazoratini amalga oshirishdir. Shu bilan birgalikda umumyurisdiksiya sudlaridan alohida mustaqil ixtisoslashtirilgan tergov sudyalari korpusi hisoblanadi, jinoyat ishini sudda mohiyatan ko'rib chiqish vakolati bo'lmaydi.

### **Material va metodlar**

O'zbekiston Respublikasida "O'zbekiston – 2030 strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 300-sonli qaroriga asosan 2024-yil yakuniga qadar qonunda belgilangan asoslarda tezkor-qidiruv va tergov harakatlariga sanksiya berish masalasini alohida sudyalari – tergov sudyalari tomonidan ko'rib chiqish tartibi joriy etilishi natijasida O'zbekiston Respublikasi jinoyat protsessida yangi institut – tergov sudyasi instituti kiritilmoqda. O'zbekiston jinoyat protsessual qonunchiligida tergov sudyasining huquqiy maqomini mustahkamlash va ixtisoslashtirilgan tergov sudyalari korpusini alohida qonun bilan tartibga solish vazifasi dolzarb hisoblanadi. Avvalo, ushbu vazifalarni amalga oshirishda va tergov sudyasi institutining ahamiyatini ochib berishda dastavval tergov sudyasi institutining kelib chiqish tarixi, tergov sudyasining jinoyat protsessidagi vakolatlar va vazifalari, shuningdek, jinoyat protsessida tergov sudyasi instituti Qozog'iston, Estoniya, Qirg'iziston, Gruziya va Moldova kabi xorijiy davlatlar tajribasi asosida tadqiq etildi.

Ushbu maqola doirasida tarixiy, qiyosiy, tizimli-funksional metodlardan foydalanildi.

### **Tadqiqot natijalari**

Qozog'iston Respublikasi jinoyat protsessida tergov sudyasi instituti 2015-yilda joriy etilgan [1, 223-b.]. Mamlakatda tergov sudyasi institutining joriy etilishi jinoyat protsessida ayblov va himoya tarafning tengligini ta'minlash imkonini berdi [6]. Qozog'iston Respublikasi jinoyat protsessida tergov sudyasi instituti joriy etilishi zaruratining bir qancha sabablari mavjud bo'lgan. Aynan jinoyat protsessida ishtirok etayotgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish va jinoyat ishini yuritishning dastlabki bosqichlarida sudgacha bo'lgan ish yuritish ustidan sud nazoratini kuchaytirishni taqozo etadi. Shuningdek, ushbu institutning joriy etilishiga ushbu mamlakat fuqarolari tomonidan jinoyat protsessining sudgacha bo'lgan bosqichlarida sodir etilgan huquqbuzarliklar bilan bog'liq ishlar yuzasidan shikoyatlarning berilganligi ham sabab bo'lgan. Shuningdek, mamlakatda Inson huquqlari va asosiy erkinlarini himoya qilish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasining turli moddalarini buzgan holda olingan nomaqbul dalillardan foydalanish holatlari, tezkor-qidiruv tadbirlari va tergov harakatlarining o'tkazilishi ustidan sud nazoratining to'laqonli yo'qligi ham ushbu institutning joriy etilish zaruratini taqozo etgan. Shundan so'ng mamlakatda sud nazoratini kuchaytirishning eng samarali yo'li ixtisoslashtirilgan tergov sudyalari korpusi joriy etilgan. Qozog'istonda tergov sudyalari tomonidan jinoyat protsessida ishni sudga qadar yuritishda nazoratni amalga oshirishi quyidagi natijalarga imkon berdi:

– jinoyat protsessining sudgacha bo'lgan bosqichlarida jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquqlarini ta'minlash va ularni himoya qilish darajasini oshirish masalalariga jiddiy e'tibor qaratish;

- sud tizimida ish yuklamalarini kamaytirish;
- jinoyat protsessida dastlabki tergov sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatish.

Qozog'iston Respublikasi jinoyat protsessida tergov sudyasi instituti 2015-yilda joriy etilgan. Qozog'iston Respublikasi jinoyat protsessual qonunchiligiga muvofiq, uning vakolatlariga ishni sudga qadar yuritish bosqichida shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi ustidan sud nazoratini amalga oshirish belgilangan. Qozog'iston Respublikasida tergov sudyasi jinoyat ishi bo'yicha o'z tashabbusi bilan harakat qilish va qaror qabul qilishga haqli emas. U faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlardan, tergovga aloqador shaxslardan va advokat tomonidan kelib tushgan materiallar, murojaatlar, iltimosnomalarni ko'rib chiqadi va ular yuzasidan tegishli qarorlar qabul qiladi. Mamlakat jinoyat-protsessual qonunchiligi tergov sudyasining jinoyat ishi mohiyati bo'yicha ko'rishda ishtirok etishini bevosita taqiqlashni belgilaydi. Ushbu institut joriy etilganda Qozog'iston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga tergov sudyalariga 12 turdagi tergov harakatlarini amalga oshirish belgilangan edi. 2016-yildan tergov sudyalarining vakolatlari yanada kengaytirildi. Shuningdek, Qozog'istonning barcha viloyat markazlarida, shuningdek, Ostona, Olmaota va Turkiston shaharlarida 2018-yil 7-apreldan o'z faoliyatini boshlagan ixtisoslashtirilgan tumanlararo tergov sudyalari korpusi tashkil etildi. Ixtisoslashtirilgan tergov sudlari umumiy yurisdiksiya sudlaridan mustaqil sud hokimiyatining mustaqil organi sifatida tashkil etildi. Bu ularga jinoyat ishlari bo'yicha sudgacha bo'lgan ish yuritishda faqat sud nazoratiga ixtisoslashish imkonini berdi. Shunday qilib, advokatlarning vakolatlari va maqomi sezilarli darajada oshdi. Himoya va ayblov o'rtasida o'zaro ma'lumot almashish (to'plangan dalillar) instituti joriy etildi. Yuridik shaxslar tomonidan advokatlarning so'rovlarini bajarishning aniq muddatlari belgilandi. Advokat tomonidan o'tkazilgan so'rovnomani ish materiallariga ilova qilish va jinoyat protsessini yurituvchi organ tomonidan o'rganishdan so'ng dalil maqomiga ega bo'lish mexanizmi belgilandi. Qozog'istonda tergov sudyalarining ahamiyati va samaradorligi yildan yilga ortib bormoqda. 2019-yilda tergov sudyalari tomonidan 90 mingdan ortiq ish ko'rib chiqilgan (2018-yilga nisbatan 13 foizga ko'p). Tergov sudyalari tergov organlaridan gumon qilinuvchilar va ayblanuvchilarni hibsga olish uchun ruxsat olishni ko'proq rad qila boshladilar. 2018-yilga nisbatan hibsga olinganlar soni 4,2 foizga kamaygan. Uy qamog'i va garovga qo'yish holatlari ko'paygan. 2019-yilda tergov sudyalari tomonidan mol-mulkni xatlash to'g'risidagi arizalarning 26 foizi qo'llab-quvvatlanmadi, tergov organlari, surishtiruv va prokurorlarning xatti-harakatlari ustidan berilgan shikoyatlarning 42 foizi qanoatlantirildi [7]. Tergov sudyasining shaxsiy qaroriga binoan prokuratura organlarining mansabdor shaxslari javobgarlikka tortilishi amaliyoti shakllangan. Natijada tergov sudyalari faoliyati orqali huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatiga jiddiy tuzatishlar kiritildi, jumladan, dastlabki tergov ustidan prokuror nazorati kuchaytirildi. Ushbu institutning yutuqli tomonlaridan biri jinoyat protsessida ish yuritishni sudgacha bo'lgan bosqichida noqonuniy ravishda olingan dalillarni istisno qilish to'g'risida ariza berishi imkoniyati mavjudligi noqonuniy



ravishda olingan dalillarni maqbul dalil sifatida e'tirof etishning oldini oladi. Huquqshunos olim M.A. Makarov tergov sudyasining huquqiy maqomini belgilashda protsessual harakatlarni amalga oshirish va protsessual qarorlar qabul qilish, shu jumladan, shaxslarning huquqlari, erkinliklari va manfaatlariga rioya etilishi ustidan sud nazoratini olib borish masalalariga asosiy e'tiborni qaratgan [8, 61-b.]. Qirg'iziston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining yangi tahriri qabul qilingandan so'ng 2019-yil 1-yanvardan jinoyat protsessida tergov sudyasi instituti joriy etildi. Tergov sudyasiga jinoyat protsessida sudgacha bo'lgan ish yuritishni amalga oshiruvchi organlar va mansabdor shaxslarning harakatlari va qarorlarining qonuniyligi va asosiligi ustidan sud nazoratini amalga oshirish vakolati berildi. Qirg'iziston Respublikasi Konstitutsiyasida sudning inson huquq va erkinliklarini himoya qilishdagi alohida maqomi mustahkamlab qo'yilgan. Tergov sudyasining huquqiy maqomi Qirg'iziston Respublikasi jinoyat protsessual kodeksining 31-moddasida belgilandi.

Qirg'iziston Respublikasi jinoyat protsessual kodeksining 31-moddasiga ko'ra, tergov sudyasi sudgacha bo'lgan ish yuritish jarayonida jinoyat va (yoki) huquqbuzarlik sodir etishda gumon qilingan shaxsni ushlab turishning qonuniyligi va asosiligi to'g'risida, ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risida, profilaktika tadbirlarini o'tkazish muddatini uzaytirish to'g'risida, hibsdan bo'lmagan gumon qilinuvchini tegishli tekshiruvlar o'tkazish uchun tibbiy yoki ruhiy kasalliklar shifoxonasiga joylashtirish to'g'risida, mol-mulkni, shu jumladan, jismoniy va yuridik shaxslarning hisobvaraqlari va depozitlarida saqlanayotgan yoki banklarda va boshqa kredit tashkilotlarida depozitga qo'yilgan mablag'larini, qimmatli qog'ozlarni va ularning sertifikatlarini olib qo'yish yoki olib qo'yishni bekor qilish to'g'risida, gumon qilinuvchini lavozimidan vaqtincha chetlashtirish to'g'risida, marhumning yaqin qarindoshlari yoki turmush o'rtog'ining roziligi bo'lmaganda, eksqumatsiya qilish to'g'risida, uy-joyni, shuningdek, unda yashovchi shaxslarning rozilgisiz ularga tegishli yoki boshqa huquqqa ega bo'lgan boshqa obyektlarni ko'zdan kechirish to'g'risida, olib qo'yish va tintuv o'tkazish to'g'risida, shaxsiy tintuv o'tkazish, maxsus tergov harakatlarini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish huquqiga ega. Shuningdek, sud nazoratini amalga oshirish doirasida tergov sudyasi surishtiruv organining vakolatli mansabdor shaxsi, tergovchi, prokurorning harakatlari (harakatsizligi) va qarorlari ustidan jinoyat protsessi ishtirokchilarining shikoyatlarini ko'rib chiqadi [9, 141-b.].

Aynan ushbu mamlakat jinoyat protsessida tergov sudyasi institutining joriy etilishi surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning harakatlari (harakatsizligi) ustidan berilgan shikoyatlarni tergov sudyasi tomonidan ko'rib chiqilishi va sudgacha bo'lgan ish yuritishda jinoyat ishining obyektiv va xolisona yuritilishiga erishildi. Gruziya davlatida tergov sudyalariga nisbatan magistr sudyasi atamasi ishlatiladi [10, 15-b.].

### **Tadqiqot natijalari tahlili**

Estoniya, Qozog'iston, Gruziya, Moldova, Qirg'iziston jinoyat protsessual kodekslarida tergov sudyasining protsessual maqomi va uning vakolatlari

belgilangan. Tergov sudyasi mustaqilligini ta'minlash maqsadida uning maqomi boshqa sudyalarniki bilan tenglashtirilgan. Tergov sudyasining protsessual jihati xorijiy tajribada ikki tarkibiy qismdan iboratdir. Bular tergov sudyasining protsessual maqomi va uning vakolatlarini amalga oshirish tartibidir. Tergov sudyasining protsessual maqomiga tergov sudyasining huquqlari va majburiyatlari kiradi. Lekin ushbu mamlakatlarda tergov sudyasining alohida javobgarligi masalasi belgilanmagan. Shuning uchun tergov sudyalari ham sudyalari uchun belgilangan javobgarlikka tortilishi keltirilgan.

Huquqshunos olimlar tomonidan tergov sudyasining vakolatlari turlicha tasniflanadi. Huquqshunos olim S.A. Odilov ularni ikki guruhga ajratadi [11, 121-122-b.]:

1) inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan vakolatlar;

2) jinoyat protsessual qonunchilikka amal qilinishini nazorat qilishga bo'lgan vakolatlar.

Yana bir huquqshunos olim A.A. Maxashev tergov sudyasi vakolatlarini uch katta guruhga bo'lgan [12]:

1) tergov harakatlariga ruxsat berish;

2) tergovchining harakatlari (harakatsizligi) va qarorlari ustidan shikoyatlarni ko'rib chiqish;

3) sudgacha bo'lgan ish yuritishda himoya tomonidan taqdim etilgan dalillarni o'rganishni ta'minlash.

Huquqshunos olimlarning xulosalaridan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, mamlakatimizda tergov sudyasi institutini joriy etar ekanmiz, albatta tergov sudyasining protsessual maqomi va protsessual vakolatlarini tizimlashtirgan holda aniq belgilash dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi. Xorijiy mamlakatlarda tergov sudyasi protsessual vakolatlariga Qozog'iston, Ukraina, Moldova davlatlarida profilaktik choralarini (bizning jinoyat protsessual qonunchiligimizdagi protsessual majburlov choralariga o'xshash) qo'llash vakolatiga egaligi belgilangan va tergov sudyasi bu haqda qaror chiqaradi. Ushbu vakolatlardan tashqari protsessual majburlovning boshqa choralarini ham tergov sudyalari tomonidan amalga oshiriladi. Qozog'iston va Ukrainada tergov sudyasida protsessual majburlovning boshqa chorasida sifatida sudgacha bo'lgan ish yuritishda protsessual majburiyatlarni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan shaxslarga nisbatan jarima jazosini qo'llash vakolati ham bor.

Xorijiy mamlakatlar jinoyat protsessual qonunchiligida tergov sudyasining dalillarni isbotlash va ta'minlash amalga oshirish bo'yicha vakolatlari xilma-xildir. Masalan, Qozog'iston va Qirg'iziston Respublikalarida barcha hududiy birliklarda tergov sudyasiga guvohni, jabrlanuvchini so'roq qilish vakolati berilgan. Ushbu mamlakatlar qonunchiligida tergov sudyasi jinoyat protsessi ishtirokchilarining ariza, iltimosnomalarini ko'rib chiqadi. Aynan Qozog'istonda advokatning ekspertiza tayinlash to'g'risidagi iltimosnomani tergov sudyasiga ko'rib chiqish uchun berish vakolati bor ekanligi va, o'z navbatida, tergov sudyasi ushbu iltimosnomani ko'rib chiqishni qanoatlantirish yoki rad qilishi mumkinligi jinoyat protsessual

qonunchilikda belgilangan. Qozog'iston va Estoniyada tergov sudyalari guvohlar, jabrlanuvchilarning xavfsizligini ta'minlash choralarini qo'llash to'g'risida qaror chiqaradi. Gruziya, Qozog'iston, Moldova, Qirg'iziston mamlakatlarida tergov sudyasi institutining rivojlanishiga bu borada Fransiya modeli jiddiy ta'sir ko'rsatgan [13]. Huquqshunos olim Kovtun, tergov sudyasi tomonidan jinoyat protsessida ishni sudga qadar yuritish bosqichida sud nazorati amalga oshirilishi dolzarbligi ta'kidlangan [14, 44-b.].

Moldova Respublikasi jinoyat protsessual kodeksida tergov sudyasiga jinoyat protsessida ishni mohiyatan hal qilish sud tomonidan ko'rib chiqilishi mumkin bo'lgan masalalarni oldindan hal qilmasligi talabi belgilangan.

Qirg'iziston jinoyat-protsessual qonunchiligida ham tergov sudyasi qarorlari darhol qonuniy kuchga kirishi belgilangan.

Tergov sudyasi instituti doirasida xorijiy davlatlar tajribasini tadqiq etish davomida Qozog'iston Respublikasida tergov sudyasi instituti eng rivojlangan institutlardan biri hisoblanadi.

Birinchidan, Qozog'iston Jinoyat-protsessual kodeksida tergov sudyasining protsessual maqomi va vakolatlari belgilangan.

Ikkinchidan, tergov sudyasining qarorlari ustidan shikoyatlarni ko'rib chiqish vakolatiga kiradigan hududiy ixtisoslashtirilgan tergov sudyalarining mavjudligi. Huquqshunos olim O. Panasyuk tergov sudyasini jinoyat protsessida ishni sudga qadar yuritish bosqichida inson huquqlarini himoya qilish kafolatini ta'minlovchi mansabdor shaxs deb ta'kidlaydi [15, 288-b].

Hozirgi kunda Rossiyada tergov sudyasi instituti joriy etilmagan. Lekin bu institutni joriy etish masalasi faol muhokama qilinmoqda. Ilmiy hamjamiyat tomonidan jinoyat ishi bo'yicha sudgacha bo'lgan ish yuritish ustidan sud nazoratini amalga oshirish hamda sudgacha bo'lgan ish yuritish jarayonida mansabdor shaxslarning harakatlari ustidan berilgan shikoyatlarni ko'rib chiqadigan, taraflarning iltimosnomasiga ko'ra tergov sudyasiga tergov harakatlarini (so'roq qilish, yuzlashtirish, ko'rsatuvlarni joyida tekshirish, sud-tibbiyot ekspertizasi) o'tkazishni buyuradigan vakolatlarni berish masalasi taklif qilinmoqda. Tergov sudyasining qarorlari ustidan shikoyat qilish o'rta bo'g'in sudlari (viloyat va unga tenglashtirilgan sudlar) tomonidan ko'rish amaliyotini joriy etish ham nazarda tutilgan.

### **Xulosalar**

O'zbekiston Respublikasida tergov sudyasi institutining joriy etilishi istiqbolga egadir. Ushbu institutning joriy etilishidan maqsad ham jinoyat protsessida ishni sudga qadar yuritishda shaxslarning huquq va erkinliklarini, ayblov va himoya tarafning tengligini ta'minlash va bevosita sud nazorati ixtisoslashtirilgan tergov sudyalari korpusidan iborat holda amalga oshirishdir. Tergov sudyasi institutini tadqiq etishimiz davomida tergov sudyasiga quyidagicha mualliflik ta'rifi berishni lozim topdik. "Tergov sudyasi – jinoyat protsessida ishni sudga qadar yuritishda shaxslarning huquqlari, erkinliklarini ta'minlash va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi ustidan sud nazoratini amalga oshiruvchi mansabdor shaxs". Tergov sudyasi institutining joriy etilishi natijasida jinoyat protsessining sudgacha bo'lgan bosqichida

jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining amalga oshirilishini ta'minlashga, jinoyat protsessida dastlabki tergov sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishga erishiladi. Tadqiqotimiz doirasida mamlakatimiz jinoyat protsessida tergov sudyasi institutining joriy etilishi yuzasidan o'zimizning quyidagi amaliy takliflarimizni berdik.

Birinchidan, tergov sudyalariga nafaqat tezkor-qidiruv va tergov harakatlariga sanksiya berish vakolati, balki protsessual majburlov choralarini qo'llash vakolatlari, jinoyat protsessi ishtirokchilarining iltimosnoma, shikoyat bilan tergov sudyasiga murojaat qilinganda sud nazorati tamoyilidan kelib chiqib iltimosnoma, shikoyatlarni belgilangan muddatlarda ko'rib chiqish vakolatlarini berish taklif etiladi. Aynan sud nazorati sud hokimiyatini amalga oshirish shakllaridan biri sifatida jinoyat protsessida ishni sudga qadar yuritishda noqonuniy xatti-harakatlarning oldini olish, shaxslarning jinoyat protsessida huquq va erkinliklarini ta'minlash, ishda ayblov va himoya taraflarning tengligi ta'minlashni amalga oshirishdir.

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasining "Tergov sudyasi to'g'risida"gi Qonunini qabul qilgan holda, ushbu qonunda ixtisoslashtirilgan tergov sudyalari korpusining tizimi, shuningdek, tergov sudyasi lavozimiga nomzodga qo'yiladigan talablar, tergov sudyasining maqomi, huquqi va majburiyatlari, tergov sudyalari mustaqilligining kafolatlari, tergov sudyalarini tayinlash masalasi, tergov sudyasining intizomiy javobgarligi, tergov sudyasining vakolatlarini to'xtatib turish va tugatish, tergov sudyalarining va ular oila a'zolarining moddiy hamda ijtimoiy ta'minoti kabi masalalarni alohida qonun bilan belgilab qo'yish taklif etiladi.

Uchinchidan, tergov sudyalarining sudlardan alohida mustaqil faoliyat olib borishini ta'minlash masalasi ham dolzarb hisoblanadi. Huquqshunos olim A.S. Aleksandrov ta'kidlaganidek, "Tergov sudyasi – umumiy yurisdiksiya sudlari tizimidan mustaqil ravishda ishlaydigan va ixtisoslashtirilgan tergov sudyasidir". Huquqshunos olim A.S. Aleksandrovning fikrlariga qo'shilgan holda, ixtisoslashtirilgan tergov sudyalari korpusining umumiyurisdiksiya sudlaridan alohida tashkil etilishi va mustaqilligi tergov sudyasining to'laqonli o'z vazifasini amalga oshirish jinoyat protsessida ishni sudga qadar yuritishning obyektiv va xolisona amalga oshirilishini ta'minlaydi. Aynan ixtisoslashtirilgan tergov sudyalari korpusining umumiyurisdiksiya sudlaridan alohida tashkil etilishidan maqsad ham jinoyat protsessida ishni sudga qadar yuritishda shaxslarning huquqlari, erkinliklari ta'minlash va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi ustidan sud nazoratini amalga oshirish nazarda tutilgan.

## REFERENCES

1. Zhumagaliyev R.N. Institut sledstvennykh sudey v ugolovnom protsesse Respubliki Kazakhstan [Institute of Investigating Judges in Criminal Procedure of the

Republic of Kazakhstan]. *Young Scientist*, 2021, no. 41 (383), pp. 223–225. Available at: <https://moluch.ru/archive/383/84512/>

2. Golovko L.V. Novaya rol' sud'i pri proizvodstve politseyskogo rassledovaniya v ugovnom protsesse postsovetskikh gosudarstv [The new role of the court in conducting police investigations in criminal proceedings in post-Soviet states]. Available at: [http://online.zakon.kz/Document/?doc\\_id=30931447&mode=p&page=2#pos=90;-55](http://online.zakon.kz/Document/?doc_id=30931447&mode=p&page=2#pos=90;-55)

3. Gasparyan N.S. Nuzhen li nam sledstvenniy sud'ya? [Do we need an investigative judge?]. Current problems of modern criminal law and criminology. Proceedings of the International Scientific and Practical Conference. Stavropol, 2015, pp. 138–145. Available at: <https://elibrary.ru/item.asp?id=24308670>

4. Code of Criminal Procedure of Germany. Ed. 2017, June 30. Official site of the World intellectual property organization. Available at: <https://wipolex.wipo.int/en/legislation/details/17666>

5. Zinchenko I.A. Sledstvennyy sud'ya kak uchastnik dosudebnogo ugovnogo proizvodstva (komparativistskiy vzglyad) [Investigating judge as a participant in pre-trial criminal proceedings (comparative view)]. *Bulletin of the Kaliningrad branch of St. Petersburg University of the Ministry of Internal Affairs of Russia*, 2015, no. 3 (41). Available at: <https://elibrary.ru/item.asp?id=24213480>

6. Kopbosynov T.N. O primeneni instituta sledstvennykh sudey v Respublike Kazakhstan [On the use of the institution of investigative judges in the Republic of Kazakhstan]. Information legal portal [www.zakon.kz](http://www.zakon.kz). Available at: <https://www.zakon.kz/4963079-o-primeneni-instituta-sledstvennyh.htm>

7. Kachalova O.V., Mergenova G.ZH. Sledstvennyye sudi: kazakhstanskiy opyt i rossiyskiye perspektivy [Investigative judges: Kazakh experience and Russian prospects]. *Criminal Trial*, 2020, April. Internet resource of the Supreme Court of the Republic of Kazakhstan. Available at: <https://sud.gov.kz/rus/massmedia/sledstvennyye-sudi-kazahstanskiy-opyt-i-rossiyskie-perspektivy-okachalova-gmergenova>

8. Makarov M.A. Judicial control in criminal proceedings: theoretical and legal foundations. Doctoral dissertation. Kiev, 2018, p. 495.

9. Shestakova S.D., Imanaliyeva U.E. Investigating judge as a new figure in the Kyrgyz Republic criminal procedure. *Bulletin of St. Petersburg University of the Ministry of Internal Affairs of Russia*, 2020, pp. 140–147. DOI: 10.35750/2071-8284-2020-3-140-147

10. Grigorev V.N., Zinchenko I.A., Popov A.P. Komparativistskiye zametki ob institute sledstvennogo sudi v dosudebnom ugovnom proizvodstve [Comparative notes on the institution of the investigative judge in pre-trial criminal proceedings]. *International Criminal Law and International Justice*, 2016, pp. 13–19.

11. Adilov S.A. Sledstvennyy sud'ya v ugovnom sudoproizvodstve Respubliki Kazakhstan [Investigating judge in criminal proceedings of the Republic of Kazakhstan]. *Proceedings of the Academy of Management of the Ministry of Internal Affairs of Russia*, 2017. Available at: <https://elibrary.ru/item.asp?id=28880097>





12. Abakasov M.S. Razvitiye instituta sudebnogo kontrolya vo Frantsii [The Development of the Institution of Judicial Control in France]. *Actual Problems of Jurisprudence and Solutions*, Omsk, 2017, pp. 94–98.

13. Makhashev A.A. Institut sledstvennogo sud'i v ugolovnom protsesse Respubliki Kazakhstan [Institute of Investigative Judge in Criminal Procedure of the Republic of Kazakhstan]. *Online publication "Zakon.kz"*, 2016. Available at: <https://www.zakon.kz/4812261-institut-sledstvennogo-sudi-v-ugolovnom.html>

14. Kovtun N.N. Sledstvennyy sud'ya v ugolovnom sudoproizvodstve: za i protiv [Investigating judge in criminal proceedings: pros and cons]. *Russian Justice*, 2010, pp. 41–44.

15. Panasyuk O. To the question of the relationship between the concepts of "authority" and "competence" of the court in criminal proceedings. *Public Law*, 2013, pp. 282–290.

# KRIMINOLOGIYA VA JINOIY ODIL SUDLOV

ILMIY-AMALIY JURNAL

2023-yil 4-son

VOLUME 3 / ISSUE 4 / 2023

DOI: 10.51788/TSUL.CCJ.3.4.

**MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**BOSH MUHARRIR:**

**N. Salayev**

TDYU Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrası professori, yuridik fanlar doktori

**BOSH MUHARRIR:**

**S. Samadov**

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi boshlig'i v.v.b.

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI**

**D. Bazarova**

TDYU Jinoyat-protsessual huquqi kafedrası mudiri, yuridik fanlar nomzodi, professor

**Mas'ul muharrir:** K. Hakimov

**Muharrirlar:** Y. Mahmudov, Y. Yarmolik

**Musahhih:** M. Sharifova

**Texnik muharrirlar:** U. Sapayev, D. Rajapov

**Tahririyat manzili:**

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

**Tel.:** (0371) 233-66-36, 233-41-09.

**Faks:** (0371) 233-37-48.

**Veb-sayt:** www.ccj.tsul.uz

**E-mail:** criminologyjournal@tsul.uz

**Obuna indeksi:** 1386.

Jurnal 2023-yil 21-dekabrda bosmaxonaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli bosma tabog'i: 6,74.

Adadi: 30. Buyurtma: № 132.

TDYU bosmaxonasida chop etildi.

ISSN 2181-2179

Toshkent davlat yuridik universiteti ©